



## YODGOR NASRIDDINOVA – HAYOT SINOVLARIDA TOBLANGAN AYOL

*Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,  
Namangan davlat universiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi  
E-mail: [ruxshona01062005@gmail.com](mailto:ruxshona01062005@gmail.com)  
Tel: +998931021725*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada nafaqat O’zbekiston, yoki sobiq sovet davlati, balki butun Sharqda parlament raisi bo’lgan birinchi ayol – O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Yodgor Nasriddinova hayoti va faoliyati haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** Sobiq tuzum, Yodgor Nasriddinova, Farg’ona viloyati, Stalin, Nikita Xrushchyov, Leonid Brejnev, O’zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi, “Paxta ishi”, mustaqillik.

**Аннотация:** В статье рассказывается о жизни и деятельности Ёдгор Насридиновой, первой женщины, ставшей спикером парламента не только Узбекистана, бывшего советского государства, но и всего Востока – Председателя Президиума Верховного Совета Узбекской ССР.

**Ключевые слова:** Бывший режим, Ёдгор Насридинова, Ферганская область, Сталин, Никита Хрущёв, Леонид Брежнев, Президиум Верховного Совета Узбекской ССР, «Хлопковое дело», независимость.

**Article:** This article provides information about the life and work of Yodgor Nasriddinova, the first woman to become the speaker of parliament not only in Uzbekistan, or the former Soviet state, but also in the entire East - the Chairperson of the Presidium of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR.

**Keywords:** Former regime, Yodgor Nasriddinova, Fergana region, Stalin, Nikita Khrushchev, Leonid Brezhnev, Presidium of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR, "Cotton affair", independence.



Buyuk tariximizda ko'plab buyuk allomalar, ilm-fan arboblari, davlat va siyosat arboblar yashab o'tgan va ular ichida ayollar ham munosib o'rinni egallaydi. Shunday mashhur ayollardan biri – Yodgor Nasriddinovadir. Yodgor Nasriddinova murakkab davrda yashagan, qiyinchiliklarda toblangan mashhur siyosiy arbob bo'lib, nafaqat O'zbekistonda yoki sobiq ittifoqda, balki butun Sharqda parlament raisi bo'lган birinchi ayoldir.

Yodgor Nasriddinova 1926-yil 20-dekabrda O'zbekiston SSRning Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida tavallud topgan. Otasi yuk tashuvchi bo'lib mehnat qilgan va qizi tug'ilishidan uch oy oldin vafot etgan. Onasi qiziga dadasi xotirasiga Yodgor deb ism qo'ygan. Erining bevaqt o'limidan so'ng onasi qizini olib, turmush o'rtaq'ining uyidan 50 km uzoqlikdagi boshqa bir qishloqdagi ota uyiga ketadi va ikkinchi marta turmushga chiqadi [1].

O'gay otasi giyohvand bo'lib, Yodgor Nasriddinova 2005-yilda bergen intervusida, bir kuni o'gay otasi uni qo'lidan ushlab, tashqariga olib chiqqani va yo'l chetida yolg'iz tashlab ketganini eslaydi. Shunday qilib, u begona insonlarning uylarida yashashga majbur bo'ladi. Bu paytda Yodgor Nasriddinova 6 yoshda edi. Yodgor 11 yoshigacha shunday yashashda davom etadi [2].

1931-yil Yodgor Nasriddinova uchun burilish davri bo'ldi. U Qo'qondagi birinchi mehribonlik uyiga qabul qilingan va u yerda qizaloq ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan. 1936-yilda Toshkent temiryo'l transporti institutining ishchi fakultetiga o'qishga kirishga muvaffaq bo'lgan. Yodgor Nasriddinova OTM ni tamomlashidan oldin Stalin stipendiyasini oladi [2].

Yodgor Nasriddinova 1941-yil oktyabr oyidan Toshkent temir yo'lida muhandis bo'lib ishlay boshlagan. Shu bilan birga Toshkent institutida aspiranturasida o'qishini davom ettirgan. U 18 yoshida Kattaqo'rg'on suv ombori qurilishida usta lavozimida, keyinchalik esa Toshkent – Angren temir yo'l qurilishi guruhiга rahbarlik qilgan. 1939-yilda Yodgor Nasriddinovaga O'zbekiston SSR rahbari Usmon Yusupov Komsomol a'zosi Respublika Butun Ittifoq fizkul'tura ko'rigida O'zbekiston SSR vakili sifatida qatnashishni ishonib topshiradi. Ko'rikdan



so'ng katta ziyofat uyushtiriladi, vakillarni shaxsan Stalin qabul qiladi. Shu kuni Yodgor Nasriddinova Stalin e'tiboriga tushib bir necha savollariga javob beradi.

Yodgor Nasriddinova 1942-yil Kommunistik partiya a'zosi bo'lib, O'zbek maktablari komsomol MQ kotibi bo'ladi. Shu yili O'zbekiston kasaba uyushmasi raisi Siroj Nuriddinov bilan oila quradi. 1946-yilda Toshkent viloyat komsomol komitetining birinchi kotibi etib tayinlanadi. 1947-yilda o'qishni tamomlagach, komsomol va viloyat partiyasida turli lavozimlarda faoliyatini davom ettiradi. 1952-yilda O'zbekiston sanoat vaziri, nihoyat, 1959-yildan – 1970-yilgacha O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi lavozimida faoliyatini davom ettiradi. Bu lavozimga uni shaxsan Sovet Ittifoqi rahbari Nikita Xrushchyovni o'zi tayinlaydi. Yodgor Nasriddinova O'zbekistonda bunday lovozimni egallagan birinchi ayol rahbardir.

Keyingi yillarda Yodgor mehribonlik uylari ochdi, evakuatsiya qilinganlarni joylashtirdi, ovqatlantirdi, kiyintirdi, taashkilotchilik qobiliyati bilan erkak hamkasblarini ham lol qoldirdi. Yodgor Nasriddinova o'z ishiga shu qadar usta ediki, hatto bir marta Sharof Rashidov shunday degan: "Biz, erkaklar, bu masalani hal qila olmaymiz. Yodgor Sadiqovnaga ishonib topshiring" degan edi.

Yodgor Nasriddinova siyosatchi rahbar ayol sifatida amalga oshirgan ahamiyatli ishlaridan biri bu – O'zbekiston SSR da xotin-qizlarning rolini oshirish va ularning huquqlarini ta'minlash borasida amalga oshirgan ishlaridir. Xususan, uni harakatlari samarasi sifatida 1961-yil 21-dekabrda O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida o'nta va undan ortiq farzand ko'rgan va tarbiyalagan ko'p bolali onalarni bir guruhiiga "Qahramon ona" ordeni va SSSR Oliy Soveti Prezidiumi yorlig'i topshirildi. Yuksak mukofot va yorlig'larni SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisining o'rinosi va shaxsan O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Yodgor Nasriddinova topshirdi. Orden va mukofotlar topshirilgandan so'ng mukofotlanganlar nomidan Baxri Alimuhamedova va Badriya Salimovalar so'zga chiqdi. Yodgor Nasriddinova mukofotlangan qahramon onalarga samimiyl tilaklar yo'lladi. Bu albatta xotin-qizlarga qaratilayotgan alohida e'tibor namunasi hisoblanadi.



Sobiq ittifoq rahbari Leonid Brejnev vafot etganidan so'ng respublikada qatag'onlik siyosatining navbatdagi to'lqini boshlanadi. "Paxta ishi" nomini olgan bu siyosat bo'yicha respublikada Gdlyanov va Ivanov boshchiligidagi tergov guruhi o'z ishini boshladi. Bu qatag'onlik siyosati bir qator davlat arboblari kabi Yodgor Nasriddinovani ham o'z domiga tortgan. Keyinchalik, Yodgor Nasriddinovani bergen ma'lumotiga ko'ra, tergov haqida ilk bor 1987-yilda "Izvestiya" gazetasida u haqida maqola chop etilganida xabar topgan. Maqolada u, O'zbekiston Prezidiumi raisi bo'lib ishlagan vaqtida 100 000 rubl pora olganlikda va oltinni Shvetsariya banklariga yo'naltirganlikda ayblangan. "Paxta ishi" fonida 1988-yilda "Izvestiya" gazetasida Arkadiy Saxninning Yodgor Nasriddinovaning poraxo'rlik va firibgarlik faoliyati haqidagi "Korrupsiya" nomli maqolasi chop etilgan. Maqolada siyosatchi amnitsiya to'g'risidagi ishlar bo'yicha 23 mln rubl evaziga pora olganligi aytildi. Biroq ularning bu qabix niyati amalga oshmagan. 1990-yil dekabrida ular Yodgor Nasriddinovaga nisbatan yetarlicha dalil yo'qligi sababli ishdan bo'shatilgan. Yodgor Nasriddinova 1991-yilda butunlay oqlangan, partiya a'zoligiga qayta tiklangan va to'xtatilgan 2 yil uchun pensiya to'langan. Yodgor Nasriddinova hech qachon korrupsiya bilan bog'liq ishlarga aralashmaganligini, guvohlar unga qarshi uydirma ko'rsatma bergenligini ta'kidlab, "Izvestiya" dan barcha ayblovlarni inkor etuvchi javobini chop etishni talab qildi. Oradan bir yil o'tib Yodgor Nasriddinovaga jinoyat tarkibi yo'qligi sababli ish to'xtatilgani haqida xat keladi. Biroq, adolatni tiklanishi oson bo'limgan. Yodgor Nasriddinova tergov jarayonida bir necha bor miokard infarktini boshqan kechirdi, qizi og'ir qon-tomir kasalligi bilan reanimatsiyaga yotqizildi, o'g'li esa tuhmatga chiday olmay 42 yoshida vafot etdi. Shundan so'ng Yodgor Nasriddinovaga xatlar yog'ildi, ularda odamlar soxta xatlarga imzo chekishga majbur bo'lganliklarini tan olishdi. Shulardan biriga ko'ra, IIV xodimlari professor Guli Sulaymonovaga oila a'zolarining sog'lig'i bilan tahdid qilgani aytildi. Yodgor Nasriddinova "Izvestiya"da chop etilgan javob xatida shunday yozadi: "Karyeramga, boshimdan yog'dirishgan mukofot va sharaflariga la'natlar bo'lsin" [4].



O'zbekistonlik siyosatchi ayol Yodgor Nasriddinova 2006-yil 7-aprelda Moskva yaqinida Kutseva shahrida vafot etgan [3].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yodgor Nasriddinova shonli tariximiz zarvaraqlarida o'zining matonati va sabri ila munosib o'rinnegallagan ayol rahbardir. Taqdir uning umr daftariga gohida oq, gohida esa qora harflar bilan hayot yo'lini yozib berdi. Mashhurlik cho'qqisiga chiqqanda ham yoki undan tushib ketganda ham hech qachon o'zini yo'qotib qo'ymadidi. Olgan har nafasida xalqini o'yladi, yurtidagi xotin-qizlar huquqlari bo'yicha kurashdi. Barcha-barchasi uchun yonib, kuyib, jonini fido qilib yashadi. Biz kelajak avlod mana shunday ajdodlarimizdan ibrat olib ulg'ayishimiz zarur. Yodgor Nasriddinova yuraklarda mangu yashaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. YODGOR NASRIDDINOVA / [HTTPS://UZ.M.WIKIPEDIA.ORG/WIKI/YODGOR\\_NASRIDDINOVA](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Yodgor_Nasriddinova)
2. YODGOR NASRIDDINOVA / [HTTPS://SP.GAZETA.UZ/PAGE34692609.HTML](https://sp.gazeta.uz/page34692609.html)
3. NASRIDDINOVA YODGOR SODIQOVNA / [HTTPS://UZENC.MIRAHEZE.ORG/WIKI/NASRIDDINOVA,\\_YODGOR\\_SODIQOVNA](https://uzenc.miraheze.org/wiki/NASRIDDINOVA,_YODGOR_SODIQOVNA)
4. NORBOYEVA ZARINABONU. SHARQDAGI BIRINCHI PARLAMENT RAISI YODGOR NASRIDDINOVA HAQIDA. // "CONFERENCE ON UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH", 2023.